**Farg'onaazot**
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz | www.azot.uz | fargonaazot.uz | AO Farg'onaazot | info@azot.uz | t.me/fargona_azot

4-son (1734)
2025-yil,
30-IYUN.

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta ■ Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar




## 27 IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI



Zamon bilan hamnafas,
O'zni o'ylamas birpas,
Jahoni tinch bo'lsa bas,
Matbuot gulga to'lsin,
Bayram muborak bo'lsin!

Yangilikka tashnalar,
Ey qalamkash oshnalar,
Kun sizlardan boshlanar,
Matbuot gulga to'lsin,
Bayram muborak bo'lsin!

O'ylab izlab topadi,
Nashriyotga chopadi,
Har oy «otchyot» yopadi,
Matbuot gulga to'lsin,
Bayram muborak bo'lsin!

Qo'lida qalam qog'oz,
Ko'pi g'alati bir oz,
Halq sevar, qilar e'zoz,
Matbuot gulga to'lsin,
Bayram muborak bo'lsin!

**Bahromjon YuSUPOVICh,**
**Matbuot hodimlari kuniga bayram tabrigi.**

## "YOSHLAR OYLIGI" DOIRASIDA BIR QATOR TADBIRLAR O'TKAZILDI

**O'zbekiston yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan, ularga hayotning turli jabhalarida yordam beradigan va ular qiziqishlari, qarashlariga befarq bo'lmagan yurtdir. Shundan kelib chiqqan holda, bizning "Farg'onaazot" AJ ham.**

Korxona uchun har bir yosh kadr qadrlidir. "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik" shiori ostida o'tkazilayotgan "Yoshlar oyligi" munosabati bilan madaniy-ma'rifiy, intellektual, sport va ma'naviy tadbirlardan so'zlarim o'z tasdig'ini topgan.

Kuni kecha o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida korxonaning barcha yoshlari qamrab olindi. Korxonamiz tarkibiy bo'linmalaridan tashkil topgan 18 - ta jamoa bellashuvda faol qatnashdi. O'yinda 1-o'rinni "Ijtimoiy rivojlanish va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi" jamoasi, 2 -o'rinni "Karbamid ishlab chiqarish sexi" jamoasi, 3 -o'rinni "Sanitar laboratoriyasi" jamoasi va 4–o'rinni "Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash sexi" jamoasi egallashdi.

Shu o'rinda, 31 nafar yosh xodimlari uchun yoshlar kuni munosabati bilan, joriy yilning 25-27 iyun kunlari Farg'ona tumani hududidagi Shohimardonning tog'li, manzarali joylariga sayohat uyushtirildi. 30- iyun kuni esa yoshlar o'rtasida "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi o'tkazilishi rejalashtirilgan.





**E'zozxon ABDULLAYEVA.**

## JAMIYAT KASABA UYUSHMASINING 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR HISOBOTI

**Kasaba uyushmasi xodimlarning o'z faoliyati davomida kasbiy manfaatlarini, mehnatga doir ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qiladigan, va bularning barchasini o'z ustavi asosida yuritadigan jamoat birlashmasidir. Jamiyatimiz Kasaba uyushmasi qo'mitasi xodimlarimiz manfaatlarini himoya qilib, ular uchun talaygina ishlarni amalga oshirib kelmoqda.**



Tashkilot qo'mitasi raisi Ilhom Abduvohidov so'zlariga ko'ra, Kasaba uyushmasi qo'mitasi ma'muriyat bilan birgalikda ishchi va xizmatchilarning ijtimoiy muhofazasiga jiddiy e'tibor qaratib hamda tasdiqlangan jamoa shartnomasi asosida tegishli ishlarni bajarib kelmoqda.

- 2024 yil yakunida jamoa shartnomasi orqali har bir xodim olgan bevosita va bilvosita daromad miqdori 48 mln. 313 ming 600 so'mni tashkil etdi. Va bu borada har yili ko'rsatgich faqat yuqorilab bordi.

Sexlarda hamda boshqa tarkibiy bo'linmalarda ishchi-xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish, ish davomida foydalanishlari uchun xo'jalik, maishiy texnika vositalari (kuler, konditsioner, muzlatgich, mikroto'lqinli pech, mini pech va boshqalar), mebel jihozlari sotib olish uchun 820 mln. 22 ming so'm mablag' ajratildi.

Ta'kidlash lozimki, korxonada muntazam ravishda umumxalq bayramlari (14-yanvar Vatan himoyachilari kuni, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami, Yoshlar kuni, Navro'z bayrami, Xalqaro oila kuni, Mustaqillik bayrami, kasaba uyushmalari kuni) munosabati bilan o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar va ko'rik-tanlovlarda faol qatnashgan ishchi-xodimlarni taqdirlash bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan.

Kasb bayramlari (Kimyogarlar kuni, Hamshiralar kuni, Favqulodda vaziyatlar xodimlari kuni, Tibbiyot xodimlari kuni, Quruvchilar kuni, Temir yo'l xodimlari kuni, Xo'jalik xodimlari kuni va boshqalar) munosabati bilan soha mutaxassislarini esdalik sovg'alari bilan taqdirlash ishlari ham muntazam amalga oshirilib kelindi.

Hodimlarning madaniy estetik dam olishlari uchun taniqli estrada xonandalari konsert dasturlari tashkil etilib, teatrlar, hayvonot bog'lari hamda bolajonlar uchun yangi yil archasi va boshqa turdagi dasturlar uchun chiptalar xarid qilib berildi.

Korxona ma'muriyati hamda Kasaba uyushma qo'mitasi Prezidentimizning "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" hamda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ijrosi bo'yicha belgilangan 2020-2024 -yillarda korxonamizning 1109 nafar mehnat faxriylari, xotin-qizlar va yoshlar vakillari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Namangan, Qo'qon, Issiqko'l, Shohimardon kabi qadimiy shaharlarda sayohatlarda bo'lib qaytdilar. Bunday tadbir uchun 1 mlrd. 139 mln. so'm mablag' sarflandi. Bu ko'rsatgich o'tgan davridan deyarli 4 barobarga oshgan. Umuman olganda o'tgan davrida madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun jami 10 mlrd.dan ziyod mablag' sarflandi.

2020-2024 yillar mobaynida sport tadbirlari uchun jami 852 mln. 235 ming mablag' sarflandi. A'zolik badali hamda xo'jalik organi mablag'lari (ish haqi fondi) hisobidan, yaqin qarindoshlarining vafot etganligi, sog'ligini tiklash va oilaviy sharoiti, tishlarni davolatish, birinchi bor turmush qurayotgan yosh xodimlar uchun moddiy ko'maklar, birinchi sinfga borayotgan farzandi bor xodimlarga maktab o'quv qurollari hamda formalar uchun mablag'lar ajratish, kam ta'minlangan, ko'p bolali, nogiron farzand tarbiyalayotgan oilalar uchun jami 5 mlrd. 698 mln.dan ziyod mablag' ajratilgan.

Kasaba uyushmasi ishchi-xodimlar salomatligini saqlash, ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish ishlariga ham katta e'tibor qaratib kelmoqda. Uyushma tomonidan sog'lomlashtirish maskanlariga 1187 ta yo'llanma – tarqatilgan. Bu ko'rsatgich yildan yilga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, kasaba uyushma a'zolik badalidan 534 ta yo'llanma berilib – 1 mlrd. 391 mln. mablag' ajratildi. Ijtimoiy-sug'urta mablag'i hisobidan 725 mln. 362 ming so'mlik jami 242 ta yo'llanma berildi. Shundan 19 tasi bepul berildi. Xo'jalik mablag'i hisobidan 842 mln. 580 ming so'mlik jami 411 ta yo'llanma berilgan bo'lsa, shundan 26 donasi bepul tarzda berildi. 1743 nafar ishchi- mutaxassislar kasaba uyushmasi ko'magi bilan tishlarini davolatdilar. Mazkur maqsadlar uchun 658 mln. 182 ming so'm mablag' sarflandi.

**(Davomi 2-betda)**

## KORXONADA ISO XALQARO STANDARTLARI BO'YICHA AUDITORLIK TEKSHIRUVIGA BAG'ISHLANGAN YIG'ILISH BO'LIB O'TDI




**Joriy yilning, 26-iyun kuni, korxonaning faollar zalida, korxona rahbariyati, tarkibiy bo'linmalari boshliqlari va «Ernst & Young» LLP xalqaro audit-konsalting kompaniyasi auditorlarining ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilish, korxonaning ISO 14001, ISO 50001 va ISO 9001 xalqaro standartlariga mosligini tasdiqlovchi auditorlik tekshiruvi natijalariga bag'ishlandi. Ushbu standartlar korxonaning atrof-muhitga ta'sirini boshqarish va kamaytirishga yordam beradigan tizimi, energiya samaradorligini boshqarish tizimi va mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish maqsadida ish jarayonlarini boshqarishni baholovchi boshqaruv tizimi uchun talablarni belgilaydi.**

Yig'ilishda «Ernst & Young» LLP auditorlari tomonidan o'tkazilgan audit natijalari bo'yicha hisobot o'qib eshittirishdi. Xususan, ISO 14001, ISO 50001 va ISO 9001 standartlarining samarali qo'llanilishining energiya samaradorligini oshirishga, ekologik xavflarni boshqarishni yaxshilashga va mahsulotlar sifatining yuqori darajasini ta'minlashga ko'maklashishini ta'kidlashdi. ISO 14001 standarti korxonaning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishiga yordam beradi. ISO 50001 energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ISO 9001 jarayonlarni standartlashtirishni ta'minlaydi, bu esa mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga olib keladi.

Yig'ilish yakunida Jamiyatimiz boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov hamda boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari Umidillo Millabayev so'zga chiqib, auditorlik natijalari yuzasidan fikr bildirar ekan, erishilgan yutuqlar bilan birga aniqlangan kamchiliklarga ham e'tibor qaratilishi zarurligini qayd etdilar. Shuningdek, xalqaro standartlardan samarali foydalanish korxona rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tishdi.

## SHERMATOVA XAMIDA MAMASIDIKOVNA — YASHIL GO'SHANING FARISHTASI

**Har bir korxonaning o'ziga xos tarixi, qadriyatlari va yutuqlari bo'ladi. Albatta, bu bu yutuqlar zamirida fidoyi insonlarning zahmatli mehnati yotadi.**



Barchamiz erta tongdan ishga shoshilar ekanmiz, korxona hududidagi yashilliklar, gulzorlar va manzarali butalar ko'zimizni quvontirib, dilimizga xotirjamlik bag'ishlaydi. Bunday go'zallikka erishish esa – yaratuvchanlik, og'ir va har kunlik mehnatni talab etadi. Kunda shu vazifani o'ziga burch qilib olgan, uni asrab-avaylashni maqsad qilgan insonlardan biri — korxonamizning Xo'jalik sexida uzoq yillardan beri halol va sidqidildan mehnat qilayotgan Xamida Mamasidikovna Shermatovadir.

Xamida Mamasidikovna 1985-yilda o'rta maktabni tamomlagach, o'z mehnat faoliyatini jamiyatimizning aynan Xo'jalik sexida ko'kalazorlashtiruvchi sifatida boshlagan. Oradan 40 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, u hanuzgacha korxonamizni obod qilish yo'lida astoydil xizmat qilmoqda. U bugun nafaqat o'z kasbining ustasi, balki jamiyatimizning tabiat bilan uyg'unligini ta'minlovchi haqiqiy yashil farishtadir.

Yillar davomida u nafaqat ishda, balki oilaviy hayotda ham barakali umr kechirdi. Turmush o'rtog'i zavodimizning JMT sexida chilangar bo'lib ishlagan, hozirda nafaqada. Ular to'rt nafar farzandni voyaga yetkazdi, farzandlariga oliy ta'lim berdilar. Bugungi kunda ikki farzandi, ikki kelini ham korxonamizda samarali mehnat qilmoqda. Shermatovlar oilasi — mehnat sulolasi sifatida korxonamiz an'analariga sodiqligini har kuni isbotlab kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Xamida Mamasi-dikovna kabi xodimlarimiz mehnati tufayli korxona hududida oz odalik, tartib-intizom va go'zallik hukum surmoqda. Shunday ekan, mazkur osoyishtalikni saqlashda, atrof-muhitni asrashga o'z hissamizni qo'shaylik.

**Otabek BEGIDJANOV.**

# JAMIYAT KASABA UYUSHMASINING 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR HISOBOTI

(Boshlaishi 1-betda)

2020-2024 yillar davomida korxonamizda faoliyat yuritayotgan mehnatkashlarimizning farzandlari korxonaga qarashli, Quvasoy shahridagi "Kimyogar" bolalar oromgohida ko'ngilli xordiq chiqarib kelyaptilar. O'tgan yili u yerda 4 764 nafar bola imtiyozli, 32 nafari esa bepul dam olib, salomatligini yaxshilab qaytdi. Korxona kuchi bilan salomatlik maskani har yili sifatli ta'mirlanib, zarur turdagi qattiq va yumshoq mebel jihozlari bilan ta'minlandi. O'z navbatida kasaba uyushmasi ham sihatgoh uchun sport jihozlari, 6 turdagi sport o'yinlari, shuningdek, kichik yoshdagi bolalarning "Quvnoq startlar" musobaqasi g'oliblarini taqdirlash uchun sovrinlar olishga homiylik qilib kelmoqda. Bolalar oromgohida ma'naviyat va ma'rifat xonasi, kutubxona tashkil etilib, ular xilma-xil adabiyotlar, shuningdek, kompyuter bilan ta'minlangani dam oluvchilarning qiziqish va e'tiborini oshirmoqda.

Bolalarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazishda ko'maklashish maqsadida mavjud kitob fondiga ega axborot-resurs markazi yanada boyitilib, har xil turdagi yangi kitoblar bilan boyitildi.

"Kimyogar" bolalar sog'lomlashtirish oromgohini mavsumlar davomida moliyalashtirish bo'yicha smeta xarajatlari korxona mablag'i hisobidan 1 mlrd. 135 mln. so'm, kasaba uyushma qo'mitasi hisobidan 553 mln. so'm ajratildi. Ota-onalar badali hisobidan 617 mln. so'm, Ijtimoiy sug'urta mablag'i hisobidan 620 mln. so'm mablag' ajratildi. Bundan tashqari oromgohga sport, kanselyariya jihozlari va futbolkalar xarid qilish uchun kasaba uyushma hisobidan 109 mln. so'mdan ziyod mablag'lar sarf etildi.

O'tgan besh yillik davrida kasaba uyushmasi qo'mitasiga 9000 dan ortiq turli xil masalalar bo'yicha murojaatlar kelib tushgan. Murojaatlarning aksariyat qismi moddiy yordam hamda sihatgohlarga yo'llanma olishga to'g'ri kelmoqda. Lekin shundan 10 ishchi-xodimlar tomonidan yozma murojaatlar asosan mehnat shartnomasini bekor qilish, o'rinsiz jazo berilganligi haqidagi masalalar bo'yicha so'rov va e'tirozlar hamda o'rinsiz ravishda kasbiy mahorat ustamasini bekor qilinganligi yuzasidandir. Ariza va so'rovlar huquqshunoslar xizmatini jalb qilingan holda o'z vaqtida ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Ishchilar haq huquqlari himoya qilinib, tegishli buyruqlar bekor qilinishiga erishildi.

Yana bir muhim masala bu ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish Taqdimnomalarini ko'rib chiqishdir. Kasaba uyushma qo'mitasi a'zolari kelib tushgan har bir taqdimnomani sinchkovlik bilan muhokama qilgan holda o'rganib chiqib, shundan so'ng qonun doirasida tegishli qarorlar qabul qilib kelmoqda. Kasaba uyushma qo'mitasiga ana shunday taqdimnomalar 68 nafar ishchi-xodimlarga nisbatan kiritilgan. Taqdimnomalar belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, 47 nafar ishchi-xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berilgan, yana 24 nafariga esa rozilik berilmagan va ular hozirda o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirib kelishmoqda.

# IJODKORLIK VA ILHOM: BAHROMJON MASHRAPOV BILAN SUHBAT



Iste'dod — bu in'om emas, balki mehnat, sadoqat va doimiy izlanish mahsulidir. Har kuni korxona hududida mehnat qilayotgan xodimlarimiz orasida ijod ahli, so'z san'atining fidoyilari borligini ko'p ham anglayvermaymiz. Bugungi suhbatdoshimiz shular qatoridandir. Bug'-qozon sexining fidoyi xodimi, o'z ishining mohir ustasi va yuragida she'riyatga bo'lgan muhabbat otashi lovullab turgan ijodkor Bahromjon Mashrapov korxonamizda 25 yildan ortiq mehnat qilib kelmoqda. Umrining qariyib 21 yilini aynan bug'-qozon sexiga bag'ishlagan havaskor ijodkor, asosiy faoliyatidan tashqari, bo'sh vaqtlarida qalam tebratadi, she'r yozadi, ilhom og'ushida yashaydi. Yaqinda uning asarlari "Ko'ngil suvratlari" nomli she'riy to'plamdan o'rin egalladi. Ushbu kitob Namangan shahridagi "Nodirabegim" axborot-kutubxona majmuasida taqdim etildi. "Kimyogar" gazetasi tahririyatida Bahromjon Mashrapov bilan bu va boshqa mavzularda yaqindan suhbat qurdik.

**— Bahromjon aka, "Ko'ngil suvratlari" she'riy to'plamiga o'z ijodingiz mahsullarini kiritilishi to'g'risida so'zlab bersangiz.**

— Men ancha yillardan beri "Nazm va navo" hamda "Ijod gulshani" telegram kanallarining faol a'zosiman. Bu yerda ko'plab ijodkorlar, ya'ni shoirlar, bastakorlar, qo'shiqchilar o'z asarlarini mualliflik huquqi asosida baham ko'rishadi. Shu munosabat bilan bir qancha iste'dod egalari bilan tanishdim, she'rlarimni ulashdim. Yosh bastakor Abdusalom Ahmedov ularni kuyga solib ijro etdi, va bu asarlar hatto mahalliy telekanallarda ham namoyish etildi. Shu tariqa mening she'rlarim mazkur to'plamga qo'shildi.

**— She'rlaringizni kitobga kiritish taklifi kimdan chiqdi?**

— Telegramdagi ijodiy guruhda taniqli yozuvchi Ibrohim Maxkamov bilan tanishdim. U she'riyatga mehr qo'ygan ijodkorlarni bir to'plamda jamlash fikrini ilgari surdi. Men ham bu g'oyani quvonch bilan qabul qildim. Ibrohim aka to'plamni tahrirlash va nashrga tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi.

**— «Ko'ngil suvratlari» kitobining taqdimoti qanday o'tdi?**

— Juda iliq, samimiy va ijodiy muhitda o'tdi. Uchrashuvga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo'limi rahbari Ziyoviddin Mansurov bosh-qosh bo'ldi. "Nodirabegim" kutubxona majmuasi mudirasi Gulchehra Murodova uchrashuv uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Tadbirda Boqiy Mirzo, Ikromjon Asliiy, Saidolim Abdurahmonov kabi taniqli adabiyot vakillari ishtirok etib, o'z maslahatlari va fikrlari bilan yosh ijodkorlarga ilhom baxsh etdilar. Men o'zim uchun katta saboqlar oldim va ijodiy hamfikrlarim bilan do'stlashdim.

**— Rahmat Bahrom aka, tahririyatimiz bilan yaqindan hamkorlik qilayotganingiz uchun. Sizga ijodiy parvozlar, ruhiy tetiklik va qalblarga yetib boruvchi yangi asarlarni yaratishingizni tilab qolamiz!**

Aytish lozimki, Bahromjon Mashrapov— mehnat bilan ijodni uyg'unlashtirgan, burch va iste'dodni birlashtira olgan shaxs. Uning ijodga bo'lgan ishtiyoqi, hayotga va so'zga bo'lgan mehr-muhabbati, qalbdan to'kilgan satrlaridagi samimiyati unga insoniylik, hayotga bo'lgan zavq, qalbiga esa quvonch beradi. She'riyat — uning uchun bir qalbni ikkinchi qalb bilan bog'laydigan ko'prik vazifasini bajaradi.




**5-iyun Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni. Mazkur sana dunyo bo'ylab nishonlanadi. Albatta, planetamiz muhofazasini saqlash o'zimizdan kelajak avlodlarimizga toza va yashil muhitni qoldirishimiz garovidir.**

Mazkur kun munosabati bilan korxonada ekologik madaniyatni yuksaltirish, xodimlarda ekologiyaga bo'lgan mas'uliyatini oshirish hamda ishlab chiqarishning tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan samarali ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda, Mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi boshqarmasi jamiyat Yoshlar ittifoqi Kengashi bilan hamkorlikda, "Biz tabiatga befarq emasmiz, u bilan hamnafasmiz!" shiori ostida eko-aksiya tashkil etildilar.

Ushbu aksiya doirasida korxona hududi va unga tutash joylarda ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek, ichki va tashqi ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini yaxshilashga qaratilgan kompleks tadbirlar amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, ushbu sana butun jamoaga tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini, barqaror ekologik amaliyotlarni kundalik ishlab chiqarish faoliyatiga integratsiya qilish muhimligini yana bir bor eslatadi.

**O'z muxbirimiz.**

# "YOSHLAR OYLIGI" DOIRASIDA BIR QATOR TADBIRLAR O'TKAZILDI

**O'zbekiston yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan, ularga hayotning turli jabhalarida yordam beradigan va ular qiziqishlari, qarashlariga befarq bo'lmagan yurtdir. Shundan kelib chiqqan holda, bizning "Farg'onaazot" AJ ham.**

Korxona uchun har bir yosh kadr qadrlidir. "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik" shiori ostida o'tkazilayotgan "Yoshlar oyligi" munosabati bilan madaniy-ma'rifiy, intellektual, sport va ma'naviy tadbirlardan so'zlarim o'z tasdig'ini topgan.

Kuni kecha o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida korxonaning barcha yoshlari qamrab olindi. Korxonamiz tarkibiy bo'linmalaridan tashkil topgan 18 - ta jamoa bellashuvda faol qatnashdi. O'yinda 1-o'rinni "Ijtimoiy rivojlanish va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi" jamoasi, 2 -o'rinni "Karbamid ishlab chiqarish sexi" jamoasi, 3 -o'rinni "Sanitar laboratoriyasi" jamoasi va 4–o'rinni "Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash sexi" jamoasi egallashdi.

Shu o'rinda, 31 nafar yosh xodimlari uchun yoshlar kuni munosabati bilan, joriy yilning 25-27 iyun kunlari Farg'ona tumani hududidagi Shohimardonning tog'li, manzarali joylariga sayohat uyushtirildi. 30- iyun kuni esa yoshlar o'rtasida "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**E'zozxon ABDULLAYEVA.**



# KORXONADA YANA BIR SULOLA VAKILI

**Bizning bugungi suhbatdoshimiz Ichki suv-bug' ta'minoti va sanoat oqova suvlari sexi smena ustasi O'lmas Yursunovich Mirzayev to'g'risida. O'lmas aka korxonada ko'p yillar davomida o'z mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda. U o'zining mehnatsevarligi, o'z kasbga sadoqati bilan jamoasi oldida hurmat qozongan.**

O'lmas Yursunovich armiya safidan qaytgach, "Farg'ona azot" ishlab chiqarish birlashmasiga (hozirda "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati) ishga joylashadi, o'z mehnat faoliyatini Suv ta'minoti va sanoat kanalizatsiya sexida kimyoviy suv tozalash apparatchisi lavozimidan boshladi. Sex rahbariyati tashabbusi bilan, bilim salohiyatiga ko'ra 28 yoshida smena boshlig'i lavozimiga tayinlanadi. Ushbu mas'uliyatli lavozim sexni ish jarayonida tezkor boshqarishni talab qilib, ko'p jihatdan asosiy texnologik sexlar va yordamchi sexlarni suv va bug' bilan uzluksiz ta'minlash, shuningdek, sanoat kanalizatsiyasining muammosiz ishlashini boshqarishdan iborat edi.

32 yil davomida smena boshlig'i lavozimida O'lmas aka o'zini tajribali va talabchan rahbar, va qo'l ostidagi xodimlarga nisbatan g'amxor inson sifatida namoyon etdi. U ko'plab yosh mutaxassislarga ustozlik qildi.

Joriy yilda O'lmas Yursunovich o'zinig 60 yillik yubileyini qarshi oldi. Mazkur kunni ham u o'zining sevimli korxonasida, o'zining jamoasi bilan kutib oldi.

Ta'kidlash lozimki, uning rafiqasi Azizaxon Mirzayeva ham korxonada 23 yildan beri ishlaydi, ularning o'g'li Sherzod esa Farg'ona politexnika institutini muvaffaqiyatli tamomlagach, 13 yildan buyon Ammiak ishlab chiqarish sexining 9-blokida mexanik lavozimida faoliyat yuritmoqda.

O'lmas Yursunovich hayoti davomida ko'plab yutuqlarga erishgan. Nafaqaga chiqqaniga qaramay, u hali ham safda. Hozirgi kunda u o'z sexida smena ustasi bo'lib ishlaydi, o'zining bebaho tajribasini yosh avlod bilan baham ko'radi.

# 5 IYUN – BUTUNJAHON ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH KUNI MUNOSABATI BILAN KO'RIK-TANLOV TASHKIL ETILDI

**"Farg'onaazot" AJda "Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan ekologik madaniyatni rivojlantirish va ishlab chiqarish hududlarining ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan "Biz tabiatga befarq emasmiz, u bilan hamnafasmiz" shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazildi.**

Ko'rik-tanlov doirasida tuzilgan hakamlar hay'ati tomonidan ishlab chiqarish sexlari atrofining sanitariya holati, chiqindilarni saralash, yig'ish va ularni to'g'ri yo'q qilish ishlari, ko'kalamzorlashtirish holati hamda daraxt va butalarga qaratilgan parvarish ishlari hamda atrof-muhitni asrashga doir tashabbus va yangiliklarning joriy etilishi mezonlari bo'yicha jamiyat sexlari baholab borildi.

Tanlov natijalariga ko'ra, 1-o'rin – XMD sexiga, 2-o'rin – Tashqi suv ta'minoti sexiga, 3-o'rin – Soda ishlab chiqarish sexiga, 4-o'rin – AK-72M sexiga va 5-o'rin – Aloqa sexiga nasib etdi. G'oliblar korxona rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlar bilan tantanali ravishda taqdirlanishdi.

**O'z muxbirimiz.**

**Joriy yilning 13-iyun kuni "Kimyogar" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida yozgi dam olish mavsumining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu quvonchli tadbir doirasida, oromgoh birinchi mavsumda 150 nafar ishchi-xodimlar farzandlarini qabul qildi.**

# "KIMYOGAR" BOLALAR SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHI O'Z FAOLIYATINI BOSHLADI

Har yili yozgi ta'til mavsumida yuzlab o'quvchilarni bag'riga oladigan ushbu oromgohda bolalarning sog'lig'i, dam olishi va intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yilgi mavsum ham bundan mustasno bo'lmadi. Oromgohda bolalar uchun zamonaviy sharoitlar yaratildi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida turli tadbirlar, musobaqalar, intellektual o'yinlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Oromgoh hududida boy adabiyot fondiga ega kutubxona, futbol, voleybol va boshqa sport o'yinlari uchun maydonchalar, shuningdek, har kuni o'tkaziladigan madaniy-ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilgan. Psixolog va sog'liqni saqlash xodimlari yordami bolajonlar uchun tayyor. Mohir oshpazlar 3 mahal, nonushta, tushlik va kechgi ovqatlarning turli xilligiga va vitaminlarga boyligiga katta e'tibor qaratishmoqda.

"Kimyogar" oromgohi bolajonlar uchun nafaqat hordiq chiqarish maskani, balki yangi do'stlar, ijobiy hissiyotlar va esda qolarli damlar manzili bo'lib xizmat qilmoqda. Bolalar yozgi ta'tilni oromgohda shod-xurram, mazmunli o'tkazishmoqda.

**O'z muxbirimiz.**

# KORXONADA "DOLZARB 30 KUN"

**Mamlakatimizda issiq kunlar kelishi bilan boshlab yuborilgan "Dolzarb 30 kun" doirasidagi yong'in xavfsizligi bo'yicha o'quv-amaliy mashg'ulotlar jamiyatimizning sexarida o'tkazildi.**

Mazkur tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – korxona ishchi-xodimlarining xavfsizlik sohasidagi bilimlarini yanada mustahkamlash, mehnat jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olish, shuningdek, jamiyatda xavfsiz mehnat muhitini yaratishga xizmat qilishdir.

Jamiyatimizning Sanoat xavfsizligi boshqarmasi, Qutqaruv otryadi, FVB OYXTTEB xodimlari hamkorligida tashkil etilgan tadbirlar davomida, yoz mavsumiga xos muhim mavzulardan biri sifatida, ruxsat etilmagan joylarda cho'milishning xavfli oqibatlari, "cho'milish qoidalari"ga qat'iy amal qilish to'g'risida so'z yuritildi.

Korxonaning 2-sanoat maydonida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan kechgan keng qamrovli profilaktik tadbirda Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi qo'riqlash departamenti alohida batalyoni ishtirok etdi. Unda xodimlarga olovli hamda gazga xavfli ishlarni qanday tartibda olib borish lozimligi yuzasidan batafsil ma'lumotlar berildi. O'quv mashg'ulotlari doirasida ko'rgazmali texnik vositalar namoyish etildi va ularning ishlatilishi amalda namoyon qilindi.

Ammiak ishlab chiqarish sexida o'tkzilgan tadbirda favqulodda holat ko'rgazmaviy uyushtirildi. Unda go'yo ammiak quyish shoxobchasida shartli ra-vishda sisterna shlangi yori-lishi natijasida ammiakning sizib chiqishi bilan bog'liq holat yuz berdi. Senariyga ko'ra, bir necha xodim shartli ravishda jarohatlandi va zaharlandi. Bu holat favqulodda evakuatsiya va zaharlangan hududni zudlik bilan lokalizatsiya qilish zaruratini keltirib chiqardi.



Mashg'ulotning asosiy maqsadi – xodimlarda xavfli modda sizib chiqish holatida to'g'ri harakat qilish, evakuatsiya tartibini bilish, professional qutqaruvchilar kelguniga qadar o'zini qanday tutish va yong'inni o'chirishning dastlabki vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda "Dolzarb 30 kun" jamiyatda samarali amalga oshirildi. Aytib o'tish lozimki, bunday mashg'ulotlar nafaqat xodimlarimizning tayyorgarlik darajasini tekshirishga, balki favqulodda xizmatlar bilan hamkorlikni takomillashtirishga ham yordam beradi. Bu har bir xodim xavfsizligi va korxona barqaror ishi uchun muhim omildir ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Tadbirlar doirasida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar, suhbatlar va ko'rgazmali vositalar orqali har bir xodim yong'in xavfsizligiga befarq bo'lmasligi kerakligi yana bir bor eslatib o'tilmoqda. Zero, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, o'z navbatida, xodimlar xavfisligiga hamda sanoat korxonasining barqaror va xavfsiz ishlashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**O'z muxbirimiz.**

# МЕЖДУНАРОДНАЯ АУДИТОРСКАЯ ПРОВЕРКА — ПУТЬ К КАЧЕСТВУ И УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ

**В АО «Farg‘onaazot» обсудили итоги внешнего аудита на соответствие международным стандартам ISO**

26 июня в актовом зале предприятия состоялось значимое для всего коллектива мероприятие — совещание, посвящённое итогам международной аудиторской проверки. Участие в нём приняли руководство предприятия, начальники всех структурных подразделений, а также эксперты международной аудиторско-консалтинговой компании "Ernst & Young" LLP, что подчёркивает высокий статус события и его важность для стратегического курса предприятия.



